



# AIFU



## INGLIZ TILIDAN O'ZBEK TILIGA TO'G'RIDAN TO'G'RI TARJIMA QILINGAN BADIY ASARLAR TAHLILI

Dilafro'z Xasanboyevna Toshtemirova  
Magistratura talabasi  
O'zbekiston Milliy universiteti  
Toshkent, O'zbekiston

**Annotatsiya:** Pragmatika bu matndagi ma'lumotning retseptorga pragmatik ta'sir o'tkazishidir, ya'ni matnda aks ettirilayotgan ma'lumot retseptorning hissiyotlariga ta'sir ko'rsatishi, muayyan emotsional reaksiya uyg'otishi va shu kabi ta'sirlardir.

**Kalit so'zlar:** Pragmatika, asliyat, janr xususiyati, to'g'ridan to'g'ri tarjima

Har qanday matnning pragmatik salohiyatini aks ettirishda tarjimon bir qancha qiyinchiliklarga duch keladi. Masalan, o'zbek tilini biror xorijiy tilga tarjima qilishda tilimizdagi mehr-oqibat, mehr-muhabbat, mehr-shafqat degan, bir-birini chuqur ma'no-mazmun bilan boyitadigan va to'ldiradigan iboralarni olaylik. Qanchalik g'alati tuyulmasin, bu iboralarni boshqa tillargaaynan tarjima qilishning o'zi mushkul bir muammo.

Pragmatik adekvatlikni ta'minlashda so'zlovchilar tomonidan ishlatiladigan hududiy-dialektga, ijtmoy-dialektga xos bo'lgan vao'zgargan nutq kabi sotsiolingvistik omillarning ishlatilishi ham muhim rol o'ynaydi.

Asliyat matnidagi hududiy dialektlarga xos elementlar tarjimada berilmaydi. Boshqa tomondan esa dialektga xos shakllar matnda vaasosan badiiy matnda muayyan alohidapersonajning lisoniy xosligini ko'rsatish uchun ishlatilishi mumkin. Bunday hollarda tarjimon tarjima tili so'z boyliklaridan foydalanib ma'noni yetkazib berishga harakat qiladi.

Tarjima qilinayotgan matnning axborot qabul qiluvchiga tushunarli tilda qayta yaratish zarurati tarjimonni asliyatdagi tushunilishi qiyin bo'lgan elementlarni asliyatda ko'zda tutilgan ma'noda yetkazish uchun qo'shimcha izohlar berishga majbur qiladi.

Vilki Kollinzning "Oq kiyingan ayol" (The woman in white) asaridan foydalaniladi va undagi pragmatik xususiyatlar aniqlanadi. Dastlab ushbu asar xususida to'xtalib o'tsak, Bu roman 1889 yilda yozilgan. XIX asrda yashab o'tgan ingliz adibi Vilki Kollinz jahon so'z san'atida detektiv ustalaridan hisoblanadi. Asarda yozuvchi o'sha davr Angliyasida har qanday haq -huquqdan mahrum etilgan ayollarning fojiali qismatini tasvirlagan. "Oq kiyingan ayol" ning biz uchun diqqatga sazovor yana bir jihati shuki, u ingliz tilidan o'zbekchaga bevosita tarjima qilingan dastlabki romandir. Tarjimon Abduqahhor Iminovdir. Asardagi voqeaayol sabri nimalarga qodir-u, er kishining qat'iyati nimalarga qodirligi tarixidir.

**Ingliz tilida:**

**ЗАМОНАВИЙ ТИЛШУНОСЛИК ВА ТАРЖИМАШУНОСИЛИКНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

*It was the last day of July. The long hot summer was drawing to a close and we, the weary pilgrims of London pavement, were beginning to think of the cloud – shadows on the corn-fields, and the autumn breezes on the sea shore.*

**O'zbek tilida:**

*Iyulning so'ngi kuni edi. Nihoyatda cho'zilib ketgan jazirama yoz oxirlab qolgan. Biz London ko'chalarida holdan toyib yurgan musofirlar makka dalalarining serbulut soyalar bilan dengiz sohilidagi kuzgi shabbodalarni qumsay boshlagan edik.*

Ushbu parchada qumsay boshlagan edik jumlasini pragmatik jihatdan quyidagi gaplardan anglashilgan "to think of the cloud shadows on the corn-fields, and the autumn breezes on the sea shore"

**Ingliz tilida:**

*For my own poor part, the fading summer left me out of health, out of spirits and if the truth must be told out of money as well. During the past year, I had not managed my professional resources as carefully as usual; and my extravagance now limited me to the prospect of spending the autumn economically between my mother's cottage at Hampstead, and my own chambers in town.*

**O'zbek tilida:**

*Kaminaga kelsak, o'tib ketayotgan yoz sog'ligimga ancha putur yetkazdi. Ruhimni tushirgan ochig'ini aytganda hamyonimni ham qoqlab qo'ygandi.*

*Hunarim orqasidan orttirgan jamg'armamni bu yil, odatdagidek, tejamagan edim.*

*Mushkul ahvolim kuzni yoonamning Hampsteddagi chorbog'ida yo bo'lmasao'zimning shahar kulbamda baholi qudrat o'tkazishimni taqazo qiladi.*

"For my own poor part" kaminaga kelsak deb tarjima qilingan. Asliyatdagi asarni o'quvchi ushbu jummalarni o'qiganda "mening ojiz trafim" deb tushunadi. Tarjimada esa uning pragmatik xususiyati o'zgargan ya'ni "o'zim haqimdaaytadigan bo'lsam" degan ma'no mavjud. *out of money* jumlasini pulsizlikka ishora qiladi. Tarjimon ushbu gapning tarjimasini mohirona qilib bergan "hamyonimni ham qoqlab qo'ygandi".

*"I had not managed my professional resources as carefully as usual"*

*Hunarim orqasidan orttirgan jamg'armamni bu yil, odatdagidek, tejamagan edim.*

Tarjimadapragmatik vositalardan o'rinli foydalanish asliyatda ifodalangan zaruriy ma'noni to'la-to'kis yetkazib berishga xizmat qiladi. Masalan quyidagi jumla tarjimasiga e'tibor beraylik:

**Ingliz tilida:**

*The quiet twilight was still trembling on the topmost ridges of the heath; and the view of London below me had sunk into a black gulf in the shadow of the cloudy night, when I stood before the gate of my mother's cottage.*

**O'zbek tilida:**

*Men onamning chorbog'i eshigiga yetishimda quyoshning sokin yog'dusi qir cho'qqidan hamon jilvalanib turardi, oyog'im ostida yastangan London manzarasi esa bulutli tun zulmati ichida qolgandi.*

"the topmost ridges of the heath" pragmatic xususiyati shundan iboratki, asliyatdagi asarni o'quvchi kishi ochiq daladagi baland tog' tizmalari uzra quyosh botishidagi nurlar jilvalanardi. "below me -oyog'im ostida yastangan" deb mohirona tarjima qilingan. "had sunk into a black gulf" iborasi tarjima qilinmagan. Original asarni o'qiyotgan kishida yuqoridagi jumlaning pragmatik xususiyatini tushunish bir

**ЗАМОНАВИЙ ТИЛШУНОСЛИК ВА ТАРЖИМАШУНОСИЛИКНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

muncha qiyinchik tug'diradi, ammo tarjimaasarda tarjimonning nima demoqchiligini birdan tushunish mumkin.

**Ingliz tilida:**

*Joyidan qo'zg'almagan birdan –bir kishi –xizmatkor edi. U hamon o'sha guvillab yonayotgan olovga ma'nosiz baqrayib qolgandi.*

*Unga murojaat etdim, turtib ham ko'rdim. Nesayganicha turardi. Nihoyat u tilga kirib, "qani u?" deb qo'ydi.*

**O'zbek tilida:**

*Where is he? Whispered the servant, staring vacantly at the flames.*

*He's dust and ashes, said the clerk*

Ushbu jumlaning o'zbek tilidagi tarjimasi orqali biz xizmatkorning shok ahvoldaligini va kimidir olov ichida qolganligini tushunishimiz mumkin. Yong'in uni biroz parishonxotir qilib qo'yganligi ham tarjimada o'z aksini topgan.

Tarjima jarayonida tarjimon ba'zan asliyatdagi pragmatik ma'noni saqlab qolish uchun, uni kitobxonga yanada tushunarli bo'lishi uchun ba'zi jumalarni kontekstdan kelib chiqqan holda tarjima qiladi.

Kuzatish va tahlillardan shunday xulosaga kelish mumkinki, til inson ongini shakllantiruvchi asbob yoki quroldir. Biz ona tilini ham milliy madaniyatni ham ularning tug'ilish vaqtiniva joyni ham tanlashga qodir emasmiz. Biz o'z ona tilimizning asirimiz chunki barcha tasavvurlarimizni, lisoniy olam manzarasini, barcha milliy va moddiy boyliklarimizni faqat til orqali ifodalay olamiz.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Q. Musayev Tarjima nazariyasi asoslari
2. G'. Salomov Tarjima nazariyasiga kirish, –T., 2000.
3. Sh. Safarov Pragmalingvistika. -T., 2008.
4. Wilkie Collins "The Woman in white". A. Iminov tarjimasi "Oq kiyingan ayol". - T. 2010
5. Najmiddinova, M. R., & Jalolova, S. M. (2021). CONTRASTIVE STUDY OF ENGLISH AND UZBEK PUNCTUATION RULES. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 2(06), 1-5.
6. BALANCES, O. S. W. O. C. ROOTABLE LAYER IN EXPERIMENTAL PRODUCTION SECTIONS. *Ozatboy Bazarovich Imamnazarov, Tokhirjon Olimjonovich Qosimov, Makhammadali Rustamjonovich Abdullaev ISSN*, 2349-0721.
7. IMAMNAZAROV, O. B., QOSIMOV, T. O., & ABDULLAEV, M. R. (2020). Balances Of Soil Waters Of Cotton Rootable Layer In Experimental Production Sections. *International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology*, 7(05), 318-321.
8. Jalolova, S. M., Otakulov, N. B., Urmonova, N. M., & Nazarova, D. O. (2022). MODERN METHODS AND TECHNOLOGIES IN ENGLISH LANGUAGE TEACHING. *International Journal of Early Childhood Special Education*, 14(4).
9. Odilov, B., & Karimov, N. (2022). COVERAGE OF ECONOMIC AND CULTURAL TRADITIONS IN THE YEARS OF INDEPENDENCE IN ETHNOLOGICAL RESEARCH (ON THE EXAMPLE OF THE FERGANA VALLEY). *International Journal of Early Childhood Special Education*, 14(3).
10. Имамназаров, О. Б. (1993). Регулирование мелиоративного режима при близком залегании слабоминерализованных грунтовых вод.
11. АГЗАМОВА, Д. Б. (2018). COGNITIVE ANALYSIS OF METAPHORIC PHRASES OF THE CONCEPT "MEMORY" IN THE ENGLISH AND UZBEK BELLES-LETTRES TEXTS. *Иностранные языки в Узбекистане*, (2), 94-100.
12. Odilov, B., & Karimov, N. Archaeological Research is an Important Source in the Study of Traditional Economic Activities of the Uzbek People (On the Example of Some Researchers of the Twentieth Century).
13. Makhammadovna, M. F., & Agzamova, D. B. (2021). Psycholinguistic studies of pre-wedding and wedding traditions (on the basis of English and Uzbek phraseological units). *Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry*, 12(7).
14. Shodmonov, A. (2022). Coverage of titles in Central Asian Hellenistic Sources. *Eurasian Journal of History, Geography and Economics*, 11, 24-26.

**ЗАМОНАВИЙ ТИЛШУНОСЛИК ВА ТАРЖИМАШУНОСИЛИКНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

---

15. Abdullaeva, M., Jalolova, S., Kengboyeva, M., & Davlatova, K. (2021). Universal Human Values as Axiological Values. *REVISTA GEINTEC-GESTAO INOVACAO E TECNOLOGIAS*, 11(2), 802-816.